FANLARARO TAFAKKUR
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2-Jild. 9-Son. Sentabr. 2026-yil

TIL ONOMASTIK SATHIDA KOSMONIMLAR

Xajiyeva Rayxon Taxirovna
Urganch shahar 20-son umumiy
o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
Email: rayxonxajiyeva62@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada til onomastik sathida kosmonimlar, ularning onomastik tizimdagi o‘rni, terminologik chegaralari va lingvomadaniy mazmuni tadqiq etilgan. Maqolada kosmonim atamasining mazmuni, kosmonimika va astronimika atamalarining farqi, kosmonimlarning nomlanish motivlari hamda o‘zbek tilidagi ba’zi kosmonimik birliklarning milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: onomastika, kosmonim, kosmonimika, astronim, astronimika, nomlanish motivlari, lingvokultura, lingvomadaniyat, o‘zbek tili.

Abstract

This article examines cosmonyms at the onomastic level of language, their place in the onomastic system, their terminological boundaries, and their linguocultural content. The article provides a scientific analysis of the meaning of the term cosmonym, the difference between the terms cosmonymy and astronymy, the naming motivations of cosmonyms, and the connection of certain cosmonymic units in the Uzbek language with national and cultural values.

Keywords: onomastics, cosmonym, cosmonymy, astronym, astronymy, naming motivation, linguoculture, lingvomadaniyat, uzbek language.

Kirish

Til insonning olamni idrok etishi, uni nomlashi va madaniy tasavvurlarini avlodlarga uzatishining asosiy vositasidir. Onomastika esa atoqli nomlar, ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va funksional xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi sifatida tilning milliy-madaniy qatlamlarini ochib beradi. Onomastikaning tarkibida antroponimika, toponimika, zoonimika, teonimika, kosmonimika va astronimika kabi yo‘nalishlar mavjud. So‘nggi yillarda kosmonimlar faqat astronomik obyektlarning nomi sifatida emas, balki xalqning kosmik olamga bo‘lgan tasavvuri, mifologik qarashlari, kognitiv tafakkuri va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy birlik sifatida ham o‘rganilmoqda. Koinot jismlari nomlari qadimiy dehqonchilik, chorvachilik, karvon yo‘llari, ob-havo kuzatishlari va diniy-mifologik qarashlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.[1] Shu bois kosmonimlarni til onomastik sathida tahlil qilish nafaqat nomshunoslik, balki lingvokulturologiya, etnolingvistika va matn tilshunosligi uchun ham dolzarbdir.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Maqolada tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, lingvostilistik va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanilgan. Kosmonim atamasining mazmuni, kosmonimika va astronimika atamalarining o‘zaro munosabati, kosmonimlarning nomlanish motivlari hamda o‘zbek tilidagi ayrim kosmonimik birliklarning milliy-madaniy mazmuni tahlil qilingan. Kosmonim atamasi yunon tilidagi *kosmos* — “olam, koinot” va *onoma* —

[1] Абу Райҳон Беруний. Ҳикматлар. – Тошкент, 1973. – Б. 31.

“atoqli ot” so‘zlaridan hosil bo‘lgan. U kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli nomini anglatadi. Kosmonimlar olam, koinot obyektlari, Oy, Quyosh, yulduzlar, sayyoralar, yulduz turkumlari, galaktikalar, tumanliklar va boshqa fazoviy jismlar nomlarini o‘z ichiga oladi. Bunday nomlar tizimini o‘rganuvchi soha esa kosmonimika deb ataladi.

Kosmonimika sohasida terminologik jihatdan bir qancha muammolar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar barcha osmon jismlari nomlarini *kosmonim* atamasi bilan ifodalasa, boshqalar ularni *astronim* atamasi bilan belgilaydi Rus onomasti A.V.Superanskaya kosmonim va astronim atamalarini o‘zaro farqlashga harakat qilgan. Uning yondashuviga ko‘ra, **kosmonim** atamasi umumiy koinot kengliklari, galaktikalar va yulduz turkumlari nomlarini anglatadi. **Astronim** atamasi esa alohida yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar va kometalar nomini bildiradi. V.D.Bondaletov va V.A.Nikonov kabi olimlar esa koinot jismlarini ifodalash uchun asosan *kosmonim* atamasini tanlaganlar. O‘zbek tilshunosligida A.I.Primov izlanishlarida barcha osmon jismlari nomlarini yagona *kosmonim* atamasi ostida birlashtirishni maqullagan.

Onomastik tizimdagi o‘rni

Onomastika tilshunoslikning atoqli nomlarni o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, u atoqli nomlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, o‘zgarishi va funksional xususiyatlarini tadqiq etadi.

Kosmonimlarning nomlanish motivlari

Kosmonimlarning nomlanishida tilga xos va tildan tashqari omillar birgalikda ishtirok etadi. Osmon jismining shakli, rangi, yorug‘ligi, katta-kichikligi, osmon

gumbazidagi joylashuvi va harakat xususiyatlari nomlanish uchun asos bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilida kosmonimlarning atalish motivlari asosan quyidagi guruhlarga ajratiladi: Masalan, *Hulkar* yulduz turkumi, *Yetti qaroqchi* va *Temir qoziq* nomlari qadimgi turkiy xalqlarning hayotiy tajribasi bilan bog‘liq. *Hulkar* yulduz turkumining osmon gumbazidagi holati ob-havo o‘zgarishlari va ekin-tikin mavsumining boshlanishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. *Yetti qaroqchi* va *Temir qoziq* nomlari bilan ataluvchi yulduzlar guruhlari tunda cho‘l va biyobonlarda yo‘l topishda muhim yo‘l ko‘rsatgich vazifasini o‘tagan. Qadimgi turkiy manbalarda *Temir qoziq* osmon gumbazining markaziy o‘qi va mutlaq harakatsiz samoviy tayanch sifatida talqin etilgan.

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING

O‘zbek tilidagi kosmonimlarning lingvomadaniy mazmuni

O‘zbek xalqining kosmik olam bilan bog‘liq qarashlarida Quyosh hayot baxsh etuvchi ilohiy kuch, Oy esa sof go‘zallik va oydinlik ramzi sifatida qadrlangan. Islom dini va arab madaniyatining kirib kelishi oqibatida o‘zbek tili leksikasida *Qamar*, *Shams*, *Zuhal*, *Mushtariy* kabi arabcha kosmonimlar, *Moh*, *Xurshid*, *Bahrom* kabi fors-tojikcha nomlar faollashdi.[2] Natijada *Quyosh* va *Oy* kabi asosiy kosmonimlarning atrofida keng ma’nodoshlik qatorlari yuzaga keldi. Masalan, Quyosh ma’nosida *Kun*, *Quyosh*, *Shams*, *Xurshid*, *Oftob* kabi birliklar, Oy ma’nosida esa *Oy*, *Moh*, *Qamar*, *Hilol*, *Badr* kabi nomlar qo‘llanilgan. Bu holat o‘zbek tilining leksik tizimida turli tillardan kirib kelgan nomlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi va milliy tilning boyish jarayonini ko‘rsatadi.

[2] 1. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. –Namangan, 2006. – B. 41.

Badiiy matnlarda kosmonimlar

Alisher Navoiy asarlarida *Quyosh*, *Oy*, *Zuhal*, *Mushtariy*, *Mirrix*, *Zuhro* va *Utorid* kabi kosmonimlar lirik qahramon ruhiyatining nozik qirralarini, murakkab ijtimoiy hodisalar va falsafiy qarashlarni ifoda qilishda faol qo‘llangan.[3] Shu tariqa kosmonimlar badiiy matnda nafaqat nomlovchi, balki obraz yaratuvchi, emotsional-ekspressiv va ramziy vazifani ham bajaradi.

Lingvokulturologik va onomastik nuqtai nazardan yondashganda, ushbu birliklar o‘zbek xalqining boy milliy madaniyati, etnografik hayoti va olam manzarasini o‘zida jamlagan qadriyat sifatida baholanadi.

Xulosa

Kosmonimlar onomastikaning alohida yo‘nalishi bo‘lgan kosmonimika obyekti hisoblanadi. Ular kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli nomlarini ifodalaydi. Kosmonim va astronim atamalari o‘rtasida terminologik farq mavjud. Kosmonim atamasi umumiy koinot obyektlari nomlarini, astronim atamasi esa alohida yulduz va sayyoralar nomlarini anglatadi. Biroq o‘zbek tilshunosligida barcha osmon jismlari nomlarini yagona *kosmonim* atamasi bilan ifodalash maqbul hisoblanadi. Kosmonimlar onomastik tizimda alohida guruhni tashkil etadi. Ular toponimlarga o‘xshab muayyan obyektni nomlaydi, ammo nomlanish obyekti kosmik makon va samoviy jismlar bo‘lgani uchun ular alohida onomastik birlik sifatida tadqiq etiladi. Kosmonimlarning nomlanishida osmon jismining fizik xususiyatlari, mifologik qarashlar, diniy tasavvurlar, dehqonchilik va chorvachilik tajribasi hamda turli tillardan kirib kelgan nomlar muhim rol o‘ynagan. O‘zbek tilidagi kosmonimlar milliy-madaniy

[3] 6. Qayumov A. va boshq. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy (Nasriy bayoni bilan). –Toshkent: G‘.G‘ulom, 1991. – B. 823-827.

qadriyatlar, xalq dunyoqarashi va lingvomadaniy tasavvurlarning o‘ziga xos ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular badiiy matnda ramziy, obrazli va emotsional-ekspressiv vazifani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt tomlik. 4-tom. – Toshkent: Fan, 1985. – Б. 268-343.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. 12-tom. – Toshkent. – B.171.
3. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 37-44.
4. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B. 41.
5. Latipov A., Rahimov A., Qodirov A., Ishmuhamedov H., Ramazonov A. Astronomiyadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at.
6. Qayumov A. va boshq. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy (Nasriy bayoni bilan). –Toshkent: G‘.G‘ulom, 1991. – B. 823-827.